

GEOGRAFIYA OQITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Xoldorova G.M.

Jizzax Davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida katta o'qituvchisi, g.f.f.d., PhD

Abdusaidova S.Yo.

Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya darslarida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, o'qitishda amaliy o'yinlar va axborot texnologiyalari haqida ma'lumotlar berilgan. Ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan bunday munosabatlar o'rnatilishi uchun bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishni ta'minlash zarur hisoblanadi

Tayanch so'z va iboralar: Ta'lim, tarbiya, axborot texnologiyalar, shamol, yer, ekskursiya, pedagogik texnologiya, loyixa, tadqiqot.

Ma'lumki, o'quv fani o'zining asosiy bilim va ma'lumot berish funksiyasidan kelib chiqqan holda ma'lum tartib asosida tuziladi. Shundan ko'rinib turibdiki, o'rta maktabda geografiya ta'limi umumjamiyat xarakterga ega bo'lmog'i va u yosh avlodning ijtimoiy foydali hamda unumli mehnatdagi ishtiroki bilan bog'lanishi lozim. Bu aloqa xalq xo'jaligida, sanoatda, ishlab chiqarishda, qishloq xo'jaligida, yangi foydali qazilmalarni izlab topishda va boshqa ijtimoiy foydali ishlarda amalga oshiriladi. Bu nazariy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam qiladi va tabiat, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq maktab o'quvchilariga kasb tanlashlariga imkon beradi.

Bugungi kunda har bir kishi hayotini iqtisodiy, texnogen va ekologik bilimlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki uning hayoti ishlab chiqarish bilan butkul bog'langan. Tabiiy boyliklardan tejamkorona foydalanish va ularni keyingi avlodlarga ham yetkazish har birimizning burchimizdir. To'g'ri yo'lga qo'yilgan geografiya ta'limi ilmiy dunyoqarashni tarbiyalash imkonini beradi.

Ma'lumki, o'qitish qonuniyatlari uzluksiz ta'lim tizimining oldiga qo'yilgan davlat va jamiyatning ijtimoiy hayotidagi ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar, ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadi va vazifalari, fanning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq holda o'zgarib turadi. Milliy dasturning asosiy maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar

ta'limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga izchil o'tilishini ta'minlaydi. Shuning uchun ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha o'quv fanlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashni ko'zda tutadi. Shu sababli barcha o'quv fanlari kabi geografiya kursini o'qitishda ham pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamon talabi sanaladi. Bizning nazarimizda, pedagogik texnologiya - ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchining pedagogik va o'quvchining o'quv-bilish faoliyatini uyg'un ravishda tashkil etish, mazkur faoliyatni faollashtirish maqsadida, samarali o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimlar majmuasidir.

Bugungi kunda o'quv materiallarini loyihalashda ta'lim texnologiyalarining muammoli, kompyuterli, modulli, mantiqiy-mazmunli, hamkorlikda o'qitish kabi interfaol texnologiyalar, shuningdek, amaliy o'yin texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Amaliy o'yinlarning asosiy maqsadi - o'quvchilarda geografiya faniga oid bo'lgan ko'nikma va malaka (xarita bilan ishlash, geografik mashq va masalalar yechish, raqamli ma'lumotlar bilan ishlash, tabiat hodisalarini kuzatish hamda tahlil qilish va h.)larni hosil qilishdan iborat. Olingan bilimlarni mustahkamlash amaliy topshiriqlarning asosini tashkil etadi. Amaliy topshiriqlar o'quvchilar tomonidan o'qituvchining ishtirokida ham, individual tarzda ham bajarilishi mumkin. Amaliy topshiriqlarning asosiy maqsadi dars davomida egallangan bilimlarni amalda tadbiq etish va ularni yanada mustahkamlashdan iboratdir. Amaliy topshiriqlar o'quvchilardan ham, geografiya o'qituvchisidan ham alohida tayyorgarlikni talab qiladi. Pedagogik texnologiyalardan amaliy o'yinlar texnologiyasining ahamiyati katta ekanligini quyida tajriba sinovi orqali bayon etamiz.

1-bosqich: Tajribaning mazmuni va o'tkazish usullarini aniqlash;

2-bosqich: Pedagogik amaliyot o'tkaziladigan ta'lim muassasasida birlamchi tajriba ishlarini sinab ko'rish;

3-bosqich: Umumlashtirilgan pedagogik tajribani amalga oshirish va olingan natijalarni tahlil qilish orqali xulosa chiqarish. Birlamchi bosqichni amalga oshirish uchun tajribaning mazmunini hamda o'tkazish usullarini tanlab oldik. Tajriba uchun 5 sinf geografiya kursidagi "Shamollar va havo massalari" mavzusini tanladik. Ushbu mavzuni no'anaviy usulda o'tkazish uslublarini ham aniqlab oldik.

Tajribaning ikkinchi bosqichini amalga oshirish uchun 5 "A" va 5 "V" sinflarini tanlab olindi. 5 "A" sinfni eksperimental sinf sifatida, 5 "V" sinfni esa nazorat guruhi sifatida tadqiqot olib borildi. Eksperimental sinfni oldindan yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni qo'llagan holda, ushbu mavzu

uchun o'quvchilarning tabiatshunoslik va geografiya fanlaridan olgan bilimlarini geografiya qonun-qoidalari bilan uyg'unlashtirib tayyorlanib borildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy usulda darslar olib borildi.

Tajribaning uchinchi bosqichida 5 "A" sinfida "Shamollar va havo massalari" mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiya hisoblanmish kompyuter texnologiyasidan foydalanib no'anaviy usulda o'tkazildi. Ushbu guruhdagi deyarli har bir o'quvchi animasion usullarini bajarib ko'rishdilar. Sinov darsi quyidagi tartibda o'tkazildi.

Bunda sinfni ikki guruhga bo'lib, o'quvchilarning tafakkurlari rivojlantiriladi va bahs-munozara avj oldiriladi. Natijada o'quvchilar faollashtiriladi, ayni vaqtda diqqatni yig'ib, chuqur tahlil etishni o'rganadilar.

Havoning gorizontol harakatiga shamol deyiladi. Samolning vujudga kelishining asosiy sababi Yer yuzasining turli joylaridagi havo bosimiga farq bo'lishidir. Quyosh nuri quruqlik va suv yuzasini bir xil isitmaydi. Suv sekin isiydi va asta soviydi. Quruqlik esa tez isib, tez soviydi. Kunduz kuni quruqlik ustidagi havo isib, kengayadi va bosim kamayadi, yani past bo'ladi. Havo bosimi katta, yuqori bo'ladi. Natijada ko'l va dengiz ustidagi havo esa salqin turadi.

Bu mavzuni o'tish texnologiyasini beramiz.

1. Shamolni o'lchash uchun kerakli asboblar
2. Tajribaning borishi va undan kelib chiqadigan ilmiy asoslar.
3. Tajribadagi yutuq va kamchiliklar.
4. Atmosfera bosimini o'lchaydigan asbob – barometr.
5. Shamollarni hosil bo'lishiga ko'ra turlari
6. Shamol gulini chizish

Yuqorida ko'rsatilgan barcha jarayonlar kompyuterdagi namoyishlar orqali mustahkamlanib borildi.

O'qituvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar quyidagilardir:

So'zlash – ko'rsatish (tajriba qilish) – vazifa topshirish – rahbarlik – nazorat qilish.

O'quvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar quyidagilardan iborat:

Tinglash – ko'rish – faollik – mashq bajarish – dars

1. Yangi mavzu yuzasidan savol-javob, o'quv bahsini uyushtirish
2. Yangi mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimni baholash
3. Dars umumiy yakunlanadi va uyga vazifa beriladi
 - a) Yozuvsiz xarita bilan ishlash. Berilgan topshiriqqa javob yozib kelish
 - b) Shamollar va havo massalari mavzusiga oid oddiy tajribalar o'tkazish


Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval

t/r		Tajriba (5 "A") va nazorat (5 "V")	
-----	--	------------------------------------	--


	Sinf	o'quvchi soni	hlari baholari				Sifat analizi
			"5"	"4"	"3"	"2"	
1.	5 - "A"	27	14	8	5	-	80%
2.	5 - "V"	26	10	9	7	-	76%

O'QUVCHILARNING SIFAT KO'RSATKICHLARI



5 "B" 82%

Sifat analizi



5 "A" 5 "B" 5 "V"

Tajriba natijalarini xulosa qilishda tajribani noan'anaviy usulda olib borilishi yaxshi natijalarga erishilganligini, bu orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari, ilmiy xulosalarga kelishlari, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtira olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari va darslarda faollikka erishilganliklari yaqqol namoyon bo'ldi.

Geografiyaning har bir mavzusi kundalik hayotimizda, turmushimizda muhim ahamiyatga egadir. Eng avvalo, ana shu narsani o'qituvchi tushunib yetgandagina o'quvchilarda tushuncha hosil qila oladi. Buning uchun biz o'qituvchilar fanning har bir mavzusini o'quvchilarga tushuntirayotganimizda uning kundalik hayotimizdagi hodisalar bilan bog'lashimiz, bu bog'lanish zamirida nafaqat mavzulararo bog'liqlik, balki, butun tizimdagi fanlarning o'zaro bog'liqligidan, ta'limning interfaol usullaridan foydalanish ta'limda katta yutuqlarga olib kelishi sir emas. Amaliy mashg'ulotlar ta'lim sifatlarini intensiv shakllantirish jarayoni bo'lish bilan birga, o'qituvchining kasbiy faoliyatini

yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan yig'indidir. Uslublar esa o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuidir. Hozirgi kunda ta'lim sohasida amaliy o'yinlat va axborot texnologiyalaridan keng foydalangan holda jahon tajribalariga asoslanib, asosiy e'tibor o'qitishning natijasiga, ya'ni o'quvchilarning nazariy bilimlarni mukammal egallashiga va shu bilan birga yetarli amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishiga, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, geografiya o'qitishda amaliy va axborot texnologiyalarini qo'llash:

- o'quv jarayonida o'quvchi faoliyatining rolini ortishini, o'quv jarayoni salmog'ini o'qituvchidan o'quvchiga ko'chishini;
- o'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchi shaxsiy yordamining ortishini;
- yangi kommunikasion texnologiyalardan foydalanish asosida o'qituvchining har bir o'quvchi bilan teskari aloqasini vujudga kelishini;
- o'quv faoliyatining kengayishini ta'minlaydi.

Yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqib, geografiya o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, maktab geografiya kursidagi atmosfera va havo massalariga oid mavzularning o'qitilishi, ushbu mavzularning tahlili va ularga tegishli mavzu asosida bir soatlik sinov darsi, natijalari xususida to'xtalib o'tildi. Berilgan nazariy bilimlar, amaliyotga qo'llash orqali o'quvchilarda malaka va ko'nikmalar shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaeva T., Sultanova N. "Tabiatga doir o'yinlarning milliy iftixor tarbiyasidagi o'rni". Toshkent 1998 y.
2. Abdiyeva Z.A. "Geografiya darslarida noan'anaviy dars usullaridan foydalanish". Navoiy 2003 y.
3. Abdunazarov, U., & Sabitova, N. (2020). Morphological features of buried Soils of loess formations of the prytaashkent region of Uzbekistan. Архив Научных Публикаций JSPI
4. Azizxo'jayeva va boshqalar "Talabalarning bitiruv amaliyotini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish". Toshkent 2010 y.
5. Xasanboyeva O.T. "Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi". Toshkent "O'qituvchi" 1997 y.

6. Холдорова, Г. (2021). Мирзачўлда атроф-мухитни мониторинг қилиш масалалари. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1)
7. Gapparov, A., & Kholdorova, K. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. Архив Научных Публикаций JSPI
8. G'aniyev A.G'. "O'quvchilaning mustaqil ishlari". Toshkent 1982.
9. Хакимов, К. М., Холдорова, Г. М., & Эрматова, Н. Н. К. (2017). Принципы и основные положения номинации географических объектов. *Проблемы современной науки и образования*, (4 (86)).
10. Nazaraliyeva E. "Geografiya". Uzviylashtirilgan o'quv dasturi asosida nazorat ishlari o'tkazish bo'yicha metodik tavsiyalar. Toshkent 2010 y.